Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI QIYOSIY BAHOLASH

Bekturdiyev Shahriyor Botir o'g'li
Bank moliya akademiyasi |
2-kurs, magistranti

Ilmiy rahbar: **Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich**
DSc, professor, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22891325

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston davlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat samaradorligini baholash masalalari o'rganilgan. Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi natijasida ularning daromadlarni shakllantirish, xarajatlarni rejalashtirish va budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish bo'yicha vakolatlari kengayib bormoqda. Mazkur jarayon moliyaviy nazoratning an'anaviy qonuniylik va maqsadlilik tekshiruvidan tashqari, moliyaviy xavflar, qarzdorlik, davlat xaridlari, budjetdan tashqari mablag'lar hamda moliyaviy natijadorlikni baholashni ham talab etadi.
Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, oliy ta'lim muassasasi, moliyaviy mustaqillik, ichki audit, budjet mablag'lari.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va universitetning uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlariga bevosita ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatida davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda to'lov-kontrakt tushumlari, ilmiy grantlar, xalqaro loyihalar, rivojlantirish jamg'armalari va boshqa budjetdan tashqari moliyaviy manbalarning mavjudligi moliyaviy boshqaruv jarayonini murakkablashtiradi.

O'zbekistonda davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish jarayoni 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qaror asosida yangi bosqichga ko'tarildi. Moliyaviy mustaqillik universitetlarga daromad va xarajatlarni boshqarish bo'yicha kengroq imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, moliyaviy hisobdorlik, shaffoflik va nazorat tizimiga qo'yiladigan talablarni ham oshiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi davlat oliy ta'lim muassasalarining ochiq moliyaviy ma'lumotlari asosida ularning moliyaviy holatini qiyosiy baholash hamda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy indikatorlarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy nazorat masalasi ichki nazorat, ichki audit, moliyaviy avtonomiya va hisobdorlik tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.

Yudianti oliy ta'lim muassasalarida COSO modeliga asoslangan ichki nazorat hamda risklarni boshqarish amaliyotini o'rganib, ular universitet boshqaruvi sifati bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatgan. Mazkur yondashuv moliyaviy nazoratni faqat moliyaviy operatsiyalarni tekshirish emas, balki nazorat

muhiti, risklarni baholash, axborot almashinuvi va monitoringni o‘z ichiga oluvchi tizim sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi.

Sofyani va Hasan oliy ta’lim muassasalarida ichki nazorat tizimining hisobdorlikni oshirish hamda firibgarlik risklarini kamaytirishdagi roliga e’tibor qaratgan. Mualliflar ichki nazorat mexanizmlarining mavjudligi bilan birga, ularning amalda qay darajada ishlashi ham muhimligini ta’kidlaydi.

Fonseka Portugaliya davlat oliy ta’lim muassasalari misolida ichki auditning boshqaruv samaradorligi hamda hisobdorlikni ta’minlashdagi rolini tahlil qilgan. Ularning fikricha, ichki audit faqat kamchiliklarni aniqlovchi bo‘linma bo‘lib qolmasdan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy axborot beruvchi institut sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Moliyaviy avtonomiya masalasini o‘rgangan Gurska universitetga ko‘proq mustaqillik berilishi avtomatik ravishda yuqori hisobdorlikka olib kelmasligini ko‘rsatadi. Moliyaviy vakolatlarning kengayishi bilan nazorat, shaffoflik va natijadorlikni baholash tizimi ham parallel rivojlanishi zarur.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi bo‘yicha Xolmuminovtomonidan olib borilgan tadqiqotda 62 ta oliy ta’lim muassasasining moliyalashtirish manbalari va xarajatlar tarkibi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari moliyalashtirish manbalari tarkibidagi o‘zgarishlar universitet xarajatlari tuzilishiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotlardan farqli ravishda ushbu maqolada davlat oliy ta’lim muassasalarining ochiq moliyaviy ma’lumotlari asosida nazorat uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan qiyosiy indikatorlar shakllantiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va deskriptiv statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik ma’lumotlar sifatida Buxoro davlat universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat transport universitetining 2023-yil birinchi yarim yilligiga tegishli ochiq moliyaviy ko‘rsatkichlari tanlandi.

Buxoro davlat universiteti bo‘yicha universitetning 2023-yil II chorak moliyaviy hisoboti va 2023-yil 1-iyul holatidagi balansi batafsil tahlil qilindi. BuxDU, SamDU va TDTUning jami daromad va xarajatlarini bir xil davr bo‘yicha taqqoslash uchun 2023-yil dastlabki olti oylik ma’lumotlardan foydalanildi. Dissertatsiyada mazkur empirik baza va hisob-kitoblar 42–58-betlarda shakllantirilgan.

Qiyosiy tahlilda quyidagi ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratildi: jami daromadlar, jami xarajatlar, daromad va xarajatlar o‘rtasidagi tafovut hamda xarajatlarning daromadga nisbati.

Xarajatlarning daromadga nisbati quyidagi shaklda hisoblandi:

K = Jami xarajatlar / Jami daromadlar × 100

Mazkur koeffitsiyent 100 foizdan yuqori bo‘lsa, tadqiqot doirasida bu holat avtomatik tarzda moliyaviy samarasizlik yoki qonunbuzarlik sifatida baholanmaydi. Tafovutni to‘g‘ri talqin qilish uchun yil boshidagi qoldiqlar, budjetdan moliyalashtirish, rivojlantirish jamg‘armalari va boshqa moliyaviy manbalar ham hisobga olinishi zarur.

Natijalar va muhokama.

Buxoro davlat universitetining moliyaviy holati

Buxoro davlat universitetining 2023-yil 1-iyul holatidagi balansi 326,18 milliard so‘mni tashkil etgan. Universitetning jami moliyaviy aktivlari 199,08 milliard so‘m yoki balansning 61,04 foizini tashkil qilgan.

1-jadval. Buxoro davlat universitetining ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlari[1]

Ko‘rsatkich	Miqdori, mlrd so‘m	Balansdagi ulushi	Moliyaviy nazoratdagi ahamiyati
Jami balans	326,18	100,00%	Umumiy moliyaviy hajm
Nomoliyaviy aktivlar	99,21	30,42%	Aktivlarning saqlanishi va foydalanishi
Moliyaviy aktivlar	199,08	61,04%	Likvidlik va pul mablag‘larini nazorat qilish
To‘lov-kontrakt mablag‘lari	191,36	58,67%	Budjetdan tashqari mablag‘lar monitoringi
Debitorlik hisob-kitoblari	27,89	8,55%	Qarzdorlikni undirish
Kreditorlik hisob-kitoblari	35,83	10,99%	Majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish

To‘lov-kontrakt mablag‘larining balansdagi 58,67 foizlik ulushi universitetning moliyaviy faoliyatida budjetdan tashqari mablag‘lar muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Mazkur holatda davlat moliyaviy nazoratining obyekti faqat budjet mablag‘lari bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Nazorat tizimida to‘lov-kontrakt mablag‘larining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanish yo‘nalishlarini doimiy kuzatib borish maqsadga muvofiq. Bunda mablag‘larning ta’lim jarayoni, professor-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash, infratuzilma, ilmiy faoliyat va boshqa maqsadlar bo‘yicha sarflanishini alohida aks ettirish moliyaviy shaffoflikni oshiradi.

BuxDUning debitorlik qarzlari 27,89 milliard so‘m, kreditorlik qarzlari esa 35,83 milliard so‘mni tashkil etgan. Qarzdorlikning faqat umumiy summasini kuzatish nazorat uchun yetarli emas. Uni yuzaga kelish sababi, muddati va mas’ul bo‘linmalar bo‘yicha segmentatsiya qilish zarur.

Davlat OTMlari moliyaviy ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

BuxDU, SamDU va TDTUning 2023-yil birinchi yarim yilligidagi daromad va xarajatlari o‘rtasida muayyan farqlar mavjud.

2-jadval. BuxDU, SamDU va TDTUning 2023-yil I yarim yillik moliyaviy ko‘rsatkichlari[2]

Ko‘rsatkich	BuxDU	SamDU	TDTU
Jami daromadlar, mln so‘m	146 019	156 308	144 867
Jami xarajatlar, mln so‘m	157 607	169 624	154 560
Daromad-xarajat farqi, mln so‘m	-11 588	-13 316	-9 694
Xarajatlarning daromadga nisbati	107,94%	108,52%	106,69%
Farqning daromadga nisbati	-7,94%	-8,52%	-6,69%

Jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil qilingan davrda barcha uchta universitetda jami xarajatlar jami daromadlardan yuqori bo‘lgan.

SamDUda jami daromadlar 156,31 milliard so‘mni, xarajatlar esa 169,62 milliard so‘mni tashkil etgan. Xarajatlarning daromadga nisbati 108,52 foiz bo‘lgan.

BuxDUda mazkur nisbat 107,94 foizni, TDTUda esa 106,69 foizni tashkil etgan.

[1] BuxDUning 2023-yil II chorak moliyaviy hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[2] Universitet saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida muallif hisobi.

Biroq ushbu natijalardan bir universitetning moliyaviy boshqaruvi boshqasiga nisbatan samaraliroq yoki samarasizroq degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosa chiqarish mumkin emas. Universitetlar talabalar soni, shtat birliklari, infratuzilma, ilmiy faoliyat, daromad manbalari va davr boshidagi moliyaviy qoldiqlari bo‘yicha farqlanadi.

Shu sababli xarajatlarning daromadga nisbati moliyaviy nazorat uchun signal indikator sifatida qo‘llanishi kerak. Agar ko‘rsatkich 100 foizdan yuqori bo‘lsa, nazorat organi tafovutning manbasini aniqlashi zarur.

Bu yondashuv tekshiruvlarni umumiy tartibda emas, balki mavjud risklardan kelib chiqib rejalashtirish imkonini beradi.

Moliyaviy nazorat uchun tavsiya etilayotgan indikatorlar

O‘tkazilgan tahlil OTMlarning moliyaviy nazoratini faqat daromad va xarajatlarning mutlaq miqdori asosida amalga oshirish yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Shu sababli davlat OTMlarini qiyosiy baholash uchun quyidagi indikatorlar tizimi taklif qilinadi.

3-jadval. OTMlarda moliyaviy nazoratning qiyosiy indikatorlari

Indikator	Mazmuni	Nazoratdagi vazifasi
Xarajatlarning daromadga nisbati	Jami xarajat / jami daromad	100%dan yuqori tafovut sabablarini aniqlash
Budjetdan tashqari mablag‘lar ulushi	Kontrakt va boshqa tushumlarning umumiy daromaddagi ulushi	Moliyalashtirish manbalarini baholash
Daromad-xarajat tafovuti	Daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq	Qoldiqlar va moliyalashtirish manbalarini tekshirish
Debitorlik yuklamasi	Debitorlik qarzining aktivlarga nisbati	Qarzdorlikni undirish riskini aniqlash
Kreditorlik yuklamasi	Kreditorlik qarzining aktivlarga nisbati	Majburiyatlarni bajarish riskini aniqlash
Ochiqlik darajasi	Ochiq moliyaviy va xarid ma’lumotlari qamrovi	Jamoatchilik va ichki nazorat imkoniyatlarini baholash

Mazkur indikatorlar moliyaviy nazoratning profilaktik xususiyatini kuchaytirishi mumkin. Masalan, kreditorlik qarzlari tez o‘sayotgan universitetda shartnoma majburiyatlari va to‘lov kalendari ustuvor tekshiruv obyektiga aylanishi mumkin. To‘lov-kontrakt mablag‘lari yuqori ulushni egallaydigan OTMlarda esa budjetdan tashqari mablag‘larni taqsimlash va ularning natijadorligiga e’tibor kuchaytirilishi lozim.

Moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi asosiy muammolar

BuxDU misolida o‘tkazilgan batafsil tahlil ochiq moliyaviy ma’lumotlarning mavjudligi moliyaviy nazorat uchun muhim shart ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, faqat PDF shaklidagi katta hajmdagi hisobotlarning e’lon qilinishi avtomatlashtirilgan tahlil imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, moliyaviy hisobot, davlat xaridlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda ichki audit natijalarining alohida tizimlarda yuritilishi moliyaviy holatni kompleks baholash imkoniyatini kamaytiradi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun OTMlarda yagona moliyaviy monitoring tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilgan tahlil asosida davlat oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratni takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishini ajratish mumkin:

1. Riskka asoslangan ichki auditni rivojlantirish. Audit rejalari barcha jarayonlarni bir xil davriylikda tekshirish o‘rniga moliyaviy hajm, risk ehtimoli va mumkin bo‘lgan zarar darajasidan kelib chiqib shakllantirilishi lozim.
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining yagona elektron reyestrini shakllantirish. Qarzdorlik summasi bilan birga uning muddati, kelib chiqish sababi, mas’ul shaxs va bartaraf etish muddati aks ettirilishi kerak.
3. Budjet va budjetdan tashqari mablag‘larni yagona nazorat konturiga birlashtirish. To‘lov-kontrakt, rivojlantirish jamg‘armasi va grant mablag‘lari davlat budjeti mablag‘lari bilan bir qatorda moliyaviy risk nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi lozim.
4. Moliyaviy va xarid ma’lumotlarini mashinada o‘qiladigan formatda e’lon qilish. Bu avtomatlashtirilgan qiyosiy va risk tahlilini amalga oshirish imkonini beradi.
5. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni faoliyat natijalari bilan bog‘lash. Xarajatlarning o‘zlashtirilishi yakuniy maqsad sifatida emas, balki ta’lim, ilmiy faoliyat va strategik rivojlanish natijalariga erishish vositasi sifatida baholanishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot natijalari davlat oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy nazoratning an’anaviy budjet intizomi va qonuniylik tekshiruvidan kengroq mazmunga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi.

Buxoro davlat universitetining 2023-yil 1-iyul holatidagi balansida moliyaviy aktivlarning ulushi 61,04 foizni, to‘lov-kontrakt mablag‘larining ulushi esa 58,67 foizni tashkil etgani budjetdan tashqari mablag‘lar ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

BuxDU, SamDU va TDTUning 2023-yil I yarim yillik ma’lumotlarini taqqoslash natijasida xarajatlarning daromadga nisbati mos ravishda 107,94; 108,52 va 106,69 foizni tashkil etgani aniqlandi. Ushbu holat moliyaviy qonunbuzarlikni bevosita anglatmaydi, balki qoldiq mablag‘lar, moliyalashtirish manbalari va hisobot davrlarini qo‘shimcha tahlil qilishni talab qiluvchi indikator sifatida qaralishi kerak.

Maqolada davlat OTMlarining moliyaviy nazoratini baholash uchun xarajatlarning daromadga nisbati, budjetdan tashqari mablag‘lar ulushi, daromad-xarajat tafovuti, qarz yuklamasi va ochiqlik darajasini birgalikda qo‘llash taklif etildi.

Kelgusida mazkur indikatorlarni O‘zbekistonning ko‘proq davlat oliy ta’lim muassasalari va bir necha yillik ma’lumotlar asosida qo‘llash moliyaviy mustaqillik bilan nazorat samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. O‘RQ-360-son, 2013-yil 26-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-684-son, 2021-yil 22-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori. 2021-yil 24-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son qarori. 2022-yil 14-fevral.
6. Fonseca, A., Jorge, S., Nascimento, C. F. The role of internal auditing in promoting accountability in Higher Education Institutions. *Revista de Administração Pública*, 2020. DOI: 10.1590/0034-761220190267x.
7. Górska, A., Pikos, A., Dobija, D., Grossi, G. Autonomy Without Accountability in Resource Allocation Reforms: Blending Old and New Logic in Universities. *Central European Management Journal*, 30(2), 2022, 43–82.
8. Kholmuminov, S., Kholmuminov, S., Wright, R. E. Resource dependence theory analysis of higher education institutions in Uzbekistan. *Higher Education*, 77, 2019, 59–79.
9. Sofyani, H., Hasan, H., Saleh, Z. Internal control implementation in higher education institutions: determinants, obstacles and contributions toward governance practices and fraud mitigation. *Journal of Financial Crime*, 2021.
10. Yudianti, F. N. Internal Control and Risk Management in Ensuring Good University Governance. *Journal of Education and Vocational Research*, 6(2), 2015, 6–12.
11. Buxoro davlat universiteti. 2023-yil II chorak moliyaviy hisoboti va 2023-yil 1-iyul holatidagi balansi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Davlat oliy ta’lim muassasalarining daromadlari va xarajatlari bo‘yicha 2023-yil I yarim yillik tahliliy ma’lumotlari.